

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NURBAYEVA XOLNISO URALOVNA

**TALABALARDA GENDER MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Nurbayeva Xolniso Uralovna

Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslari 5

Нурбаева Холнисо Ураловна

Этнопедагогические основы развития гендерной культуры у студентов 23

Nurbayeva Kholniso Uralovna

Ethnopedagogical foundations for the development of gender culture among
students..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NURBAYEVA XOLNISO URALOVNA

**TALABALARDA GENDER MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terspi.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bozorova Muslima Qodirovna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudoyberdiyeva Xurriyat Karimberdiyevna,
falsafa fanlari doktori (DSc), pedagogika fanlari professori

Erkaboyeva Nigora Shermatovna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika institutida huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01. raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 05-iyun kuni soat 13:00 dagi 06/4-son majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz tumani. “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1A uy.Tel.: (376) 221-93-56, faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika institutida Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№30 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1A uy.Tel.: (376) 221-93-56, faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20-may kuni tarqatildi.
(2026-yil 20-maydagi 30-raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida inson huquqlari, tenglik hamda ijtimoiy adolat tamoyillari asosida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muhim ijtimoiy va pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro hujjatlarda, jumladan UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Barqaror rivojlanishning 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi" dagi Maqsad 4 - "barqaror rivojlanish uchun inklyuziv, barqaror va sifatli ta'lim" - ta'lim sohasida gender tengligini alohida ta'kidlaydi. Bu maqsad doirasida "ta'limda 4.5 maqsadi: 2030-yilgacha ta'limning barcha darajalarida gender tafovutlarini yo'qotish va kamchilikdagi guruhlar, jumladan ayollar va qizlar uchun teng kirish imkoniyatini ta'minlash"¹ belgilangan. Bu borada ta'lim tizimining barcha bosqichlarida inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini chuqur integratsiya qilish, pedagogik kadrlar malakasini oshirish hamda ta'limda inklyuzivlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ta'limda inson huquqlari, gender tengligi, inklyuziv ta'lim, raqamli pedagogika hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularda ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv muhit yaratish, raqamli tafovutni bartaraf etish, o'qituvchilarning huquqiy va axloqiy kompetensiyasini rivojlantirish, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-4) asosida ta'lim sifatini oshirish kabi ilmiy yo'nalishlar dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda gender tenglik masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, bu borada 2019-yilda "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi Qonun hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya qabul qilindi. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish, talabalarda ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Natijada, ta'lim muassasalarida gender madaniyatini rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlari, treninglar va ilmiy tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, inson huquqlarini hurmat qilish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan

¹ UNESCO. Education 2030 Agenda: Inclusive, equitable and quality education for all and lifelong learning opportunities by 2030. (USB: UNESCO AT page)

darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlarga ta'lim - tarbiya berishda genderli yondashuvning nazariy-metadologik asoslari ko'plab g'arb, MDH va respublikamiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda gender madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari, gender stereotiplarni bartaraf etishning falsafiy jihatlari, oila va ta'lim muassasalarida gender madaniyatni shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar M.Abdujabborov, M.Abdullayeva, Sh.Akramova, N.R.Annayeva, M.E.Axmedova, F.B.Bayjanov, R.Djurayev, O.N.Ergasheva, I.G.Gafarova Z.Ismailova, N.Qosimova, M.Quronov, R.Mamatqulova, R.M.Medetova, N.Mullaboyeva, O.Musurmonova, E.Muxtorov, T.Narbayeva, N.M.Ochilova, D.Ro'ziyeva, Z.Saliyeva, N.Dj.Sagindikova, A.R.Saydullayeva, M.M.Tilavova, Z.T.Xolmatova, N.Xalilova, Sh.Xalilova, X.Tojiboyeva, G.B.O'razaliyavalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan B.Ageev, V.Dudukalov, I.Kon, A.Mudrik, L.Stolyarchuk va boshqalar gender tarbiya muammolarini tadqiq qilishgan bo'lsalar, E.Kamenskaya, O.Konstantinova, R.Sobirovlar ta'limda gender yondashuvning o'ziga xos jihatlari ochib berishgan. Bundan tashqari, ta'limga genderni umumlashtirish masalalari A.Smirnova, E.Yarskaya-Smirnovalar, gender stereotiplarning ta'lim va tarbiyaga ta'siri, L.Nadolinskayaning, oliy ta'limda gender tarbiya aspektlari L.Bullatova, I.Kletsina, YU.Bezelyanskiy, A.Veselovskiy, V.A.Geodakyan, N.Xamitov, L.I.Shinelova, B.Tugelbayeva, T.A.Mashika, T.N.Sidorovalar ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan J.Piaje, M.Montessori, P.Engelman, C.Xoffman, D.Blau, D.Berto, L.D.Gudkov, M.Kivinen, S.Keon, D.Leyn, P.Monson, N.Najib, L.Xusniy, K.Amundsen, Dj.Skott, K.Flint, L.Xaberlar kabilar o'g'il va qiz bolalarning ijtimoiylashuv masalalarini tadqiq etgan.

Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning etnopedagogik asoslari masalasi ilmiy tadqiqotlarda alohida va tizimli tarzda o'rganilmaganligi ushbu muammoni o'rganishimizga acoc бўлди.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq " Milliy tarbiya tizimini takomillashtirishning strategik yo'nalishlari" (2023-2026 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gender madaniyatni rivojlantirishda etnopedagogik yondashuvning epistemologik va gnoseologik asoslarini tanqidiy-tahlil, qiyosiy taqqoslash va analogiya metodlari orqali ilmiy jihatdan aniqlashtirish;

talabalarda gender madaniyatini rivojlantiruvchi omillar tizimining struktur-funksional kontseptual asoslari va etnopedagogik mexanizmlarining pedagogik-metodologik parametrlarini aniqlashtirish;

talabalarining gender madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi etnopedagogik model milliy tarbiya vositalari, strukturaviy-komponent tuzilmasi, pedagogik imkoniyatlar va funksional bog'liqligini aniqlash orqali takomillashtirish;

gender madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida etnopedagogik vositalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasini nazariy-metodologik asoslash negizida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov jarayonida Termiz davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti va Urganch davlat universitetlarining 482 nafar respondent talabarlari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslari mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspertiza baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik- statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik jihatlari analogiya usulini qo'llash orqali an'anaviy milliy qadriyatlar va zamonaviy gender me'yorlari sintezini ta'minlovchi pedagogik hodisa sifatida ilmiy asoslangan;

talabalarda gender identifikatsiyani shakllantirishning aksiologik komponenti mazmuni determinantlar ta'sir etishiga ko'ra an'anaviy etnopedagogik paradigma (patriarxal qarashlar va rollarning qat'iy taqsimlanishi) hamda zamonaviy gender strategiyalari (tenglikka yo'naltirilganlik, shaxsiy o'zini namoyon qilish) o'rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilish orqali aniqlashtirilgan;

aksiologik, kognitiv-huquqiy va faoliyatli-refleksiv komponentlarning ichki aloqadorligini ta'minlash, shuningdek, gender sensitizatsiya hamda kross-madaniy trening usullarining didaktogen imkoniyatlarini oshirish asosida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning integrativ modeli ishlab chiqilgan;

talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimi etnopedagogik materialni ijtimoiy-gumanitar fanlar sikliga integratsiyalash, milliy an'analar asosida gender yo'naltirilgan tarbiyaviy muhitni yaratish hamda professor-o'qituvchilar tarkibini gender tarbiyada etnopedagogik yondashuvni amalga oshirishga tayyorlash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini

ishlab chiqishga doir diagnostik vositalar tizimi aniqlashtirilgan;

axloqiy identifikatsiya va sotsiomadaniy moslashuv jarayonlari orqali talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” nomli o'quv qo'llanma (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-son qaroriga asosan moliyaviy mustaqillik berilgan Termiz davlat universitetining 2025-yil 7-fevraldagi 45-PO'-son buyrug'i, 45-PO'-003-raqamli guvohnomasi) nashr ettirilgan;

“Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” nomli darslik (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-son qaroriga asosan moliyaviy mustaqillik berilgan Termiz davlat universitetining 2025-yil 17-iyuldagi 219-PO'-sonli buyrug'i, 219-PO'-006 raqamli guvohnomasi) nashr ettirilgan.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston-24” ijodiy birlashmasi tomonidan tayyorlangan “Yoshlar va madaniyat”, “Talabalar hayoti”, “Ta'lim va taraqqiyot”, “Yoshlar minbari” kabi teleko'rsatuvlar uchun ushbu dissertatsiyada berilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar asosida ssenariylarni ishlab chiqishda (2024-2025-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025- yil 18- iyuldagi 05-09-1174-sonli ma'lumotnoma) foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun metodologik triangulyatsiya, statistik, empirik validatsiya va verifikatsiya tamoyillari qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining aniqligi, barqarorligi va rivojlantirish bo'yicha olib borilgan respublikamiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanganligi, tadqiqot mazmuning ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalar va ilmiy anjumanlardagi ma'ruzalar orqali ommalashtirilganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot mohiyatini yorituvchi “gender”, “gender madaniyat”, “gender stereotiplar”, “milliy qadriyat” kabi tushunchalar mazmuning ilmiy ta'riflanganligi, gender madaniyatining kognitiv, affektiv va refleksiv komponentlarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv taklif etilganligi, pedagogik va sotsiomadaniy determinantlar asosida gender madaniyatining evolyutsion rivojlanishi tahlil qilinganligi, gender tengligi va rollarning transformatsiyasi, ularning milliy ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilganligi, etnopedagogik yondashuvning gender madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni belgilab berilganligi, tadqiqot natijalari gender madaniyatini milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini yaratganligi hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslariga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik jihatlari analogiya usulini qo'llash orqali an'anaviy milliy qadriyatlar va zamonaviy gender me'yorlari sintezini ta'minlovchi pedagogik hodisa sifatida ilmiy asoslash orqali

amaliy taklif va tavsiyalar “Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 07-fevraldagi 45-PO‘-son buyrug‘i, 45-PO‘-003-raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning gender muammolarini tahlil va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv–uslubiy materiallar mazmunida amaliy ifodasini topishga, tenglik va madaniy o‘ziga xoslik kabi umuminsoniy qadriyatlarni oliy ta’lim tizimiga singdirishga yaxlit ilmiy–pedagogik yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan;

talabalarda gender identifikatsiyani shakllantirishning aksiologik komponenti mazmuni determinantlar ta’sir etishiga ko‘ra an’anaviy etnopedagogik paradigma (patriarxal qarashlar va rollarning qat’iy taqsimlanishi) hamda zamonaviy gender strategiyalari (tenglikka yo‘naltirilganlik, shaxsiy o‘zini namoyon qilish) o‘rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilish orqali aniqlab, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 07-fevraldagi 45-PO‘-son buyrug‘i, 45-PO‘-005-raqamli guvohnomasi). Natijada, mazkur darslik etnopedagogik yondashuv asosida talabalarning gender madaniyatini shakllantirishning didaktik jihatlari nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

aksiologik, kognitiv-huquqiy va faoliyatli-refleksiv komponentlarning ichki aloqadorligini ta’minlash, shuningdek, gender sensitizatsiya hamda kross-madaniy trening usullarining didaktogen imkoniyatlarini oshirish asosida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning integrativ modeli asosida amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi tomonidan tayyorlangan “Yoshlar va madaniyat”, “Talabalar hayoti”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Yoshlar minbari” kabi teleko‘rsatuvlarning ssenariylarni ishlab chiqishda foydalanilgan (2024-2025-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 18- iyul 2025 yil 05-09-1174-son ma’lumotnoma). Natijada, teng huquqli sheriklik tamoyillari asosida bag‘rikenglik, hamdardlik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy o‘zaro hamkorlikka tayyorlik kabi shaxsiy fazilatlarni qayta ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik tizim keng jamoatchilikka etkazilgan;

talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimi etnopedagogik materialni ijtimoiy-gumanitar fanlar sikliga integratsiyalash, milliy an’analar asosida gender yo‘naltirilgan tarbiyaviy muhitni yaratish hamda professor-o‘qituvchilar tarkibini gender tarbiyada etnopedagogik yondashuvni amalga oshirishga tayyorlash orqali ishlab chiqilgan ilmiy–amaliy tavsiyalardan “Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 17-iyuldagi 219-PO‘-son buyrug‘i, 219-PO‘-006 raqamli guvohnomasi; Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 13-avgustdagi 02/01-01-320-son ma’lumotnomasi). Natijada, darslikning nazariy va uslubiy asoslari kengaytirib, ko‘p millatli jamiyatda gender sezgir ta’lim muhitini amaliy shakllantirish, gender jarayonlari haqidagi bilimlarni kognitiv egallash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama etilgan va ma'qullangan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, shundan, 9 tasi respublika va 4 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 137 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'satilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “gender” va “gender madaniyati” tushunchalarining ilmiy asoslari pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilinib, talabalarda gender madaniyatni shakllanishiga ta'sir etuvchi determinantlar hamda ularning xususiyatlari yoritilgan.

“Gender” (ingl. “gender”, lot. “genus” - “zot”, “jins”, “kelib chiqish”), “biologik jins” tushunchasidan farqli ravishda, jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarni anglatadi.

“Gender madaniyat - bu jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi rollar, huquqlar, majburiyatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiruvchi qadriyatlar, me'yorlar va ramzlar majmui bo'lib, ushbu tizim jamiyatning tarixiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va avloddan-avlodga uzatiladi. Gender madaniyat ijtimoiy ong va amaliyot orqali erkaklik va ayollik identifikatsiyasini ishlab chiqadi hamda gender tengligini rivojlantirish uchun asosiy ijtimoiy shart-sharoitlarni belgilaydi.”

Tadqiqot ishida gender masalasining nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirish va ilmiy tahlil qilish maqsadida zamonaviy gender tadqiqotlari rivojiga beqiyos hissa qo'shgan yetuk olimlarning nazariy yondashuvlarini atroflicha o'rganishga alohida e'tibor qaratdik.

G'arbda gender nazariyalar ijtimoiy fanlarda “gender” tushunchasini biologik determinizmdan ajratib, uni ijtimoiy konstruksiya sifatida izohlashga asoslanadi.

Tadqiqot doirasida, zamondosh olimlarning “gender madaniyat”ga oid ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hududlarda jinslar o'rtasidagi munosabatlar tarixan o'ziga xos madaniy, axloqiy va ijtimoiy mezonlar asosida shakllangan. Bu yondashuvlar ko'pincha oila, tarbiya, axloq, ma'naviyat, ta'lim va

huquqiy ong bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi, milliy qadriyatlar saqlanib qolgan holda zamonaviy ilmiy tafakkur bilan uyg‘unlikda gender tengligi g‘oyasi rivojlantiriladi.

Gender madaniyatning shakllanishi ko‘p omilli, murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, bu jarayonda bir qancha ichki va tashqi omillarga tizimli ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur omillar tizimi ilmiy adabiyotda determinantlar, deb yuritiladi. Bu omillar ikki asosiy toifaga *ichki* (shaxsiy-psixologik) va *tashqi* (ijtimoiy-madaniy) omillarga ajratiladi. Har ikki guruh omillar gender madaniyatning rivojlanishida o‘zaro ta‘sirli va inkor etib bo‘lmas rol o‘ynaydi.

“Determinant” (lot. “determinare” - “aniqlamoq”) atamasi dastlab falsafada sababiylik qonuniyatlari doirasida qo‘llanilgan bo‘lsada, zamonaviy ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlarda belgilovchi omillar tizimi sifatida keng talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, “gender madaniyatini shakllantiruvchi determinantlar” deganda shaxs ongida genderga oid ijtimoiy me‘yorlar, qadriyatlar, stereotiplar va rollarning shakllanishiga uzviy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tizimi tushuniladi.

Tadqiqotlarda bu determinantlar beshta asosiy guruhga ajratiladi: *biologik, didaktik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy*. Har bir guruh o‘z tarkibida subdeterminantlarga ega bo‘lib, ular gender ong va xulq-atvorga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Ilmiy manbalarda ta‘kidlanganidek, gender madaniyatining shakllanishida uch bosqichli determinant tizimi mavjud bo‘lib, ular “ijtimoiy sharoit”, “madaniy tasavvurlar” va “psixologik o‘zlashtirish mexanizmlari”dan iborat. Muallif bu omillarni “gender mentalitetini shakllantiruvchi qatlamlar” deb ataydi va ularning ta‘siri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, murakkab tizimni tashkil etishini ko‘rsatadi.

Darsdagi misollar, tasvirlar va rollar gender tengligiga mos tanlanmasa, bu sinfdagi ijtimoiy rol taqsimotiga ta‘sir qiladi.

Didaktik determinantlarning gender madaniyatga ta‘siri quyidagi misollar orqali yanada aniqroq tushuniladi:

o‘qitish metodlari: interaktiv guruh ishlari chog‘ida, agar o‘qituvchi jinsiy balansga e‘tibor bermasa, guruh ichida erkak talabalar yetakchilik qilishda ustunlik qiladi. Bu esa, ayol talabalarni passiv holatga solidi;

o‘quv materiallari: agar darslik va slaydlarda erkaklar bosh qahramon sifatida, ayollar esa, ikkilamchi rol (onalar, yordamchilar) sifatida berilsa, bu ta‘lim oluvchilarda noadolatli gender tasavvurlarini shakllantiradi;

baholash mezonlari: ayol talabalar ko‘proq emotsional yondashganlik uchun, erkak talabalar esa, “rasional” yondashganlik uchun rag‘batlantirilsa, genderga oid stereotiplar mustahkamlanadi.

Didaktik determinantlar gender madaniyatni inklyuziv shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanishni taklif qiladi:

gender-sensitiv resurslar yaratish: o‘quv materiallarida har ikki jins vakillarining teng va stereotipdan holi rolda tasvirlanishi;

o‘qituvchilarning metodologik xabardorligi: darslar davomida jinsiy rollar balansiga e‘tibor qaratish, baholashda neytral mezonlar qo‘llash;

interaktiv, tenglikka asoslangan metodlar: munozara, debat, loyiha asosida o‘qitishda har bir o‘quvchiga teng faollik imkoniyati berish.

“Umumiy pedagogika va psixologiya” fanining mavjud o‘quv-reja va tematik mazmun tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu fanning har bir mavzusi gender madaniyatini rivojlantirishga salohiyatli asos bo‘lishiga qaramasdan, amalda bu imkoniyat yetarlicha amalga oshirilmayapti. Olib borilgan chuqur tahlil quyidagi asosiy ilmiy xulosalarga olib keldi:

Tizimlilikning yetishmasligi: Gender madaniyatiga oid bilimlar va kompetensiyalar faqat 15-mavzu (ya’ni yakuniy bosqichda) alohida keltirilgan bo‘lib, kursning barcha mavzulariga tizimli integratsiyalashmagan. Holbuki, gender masalasi - bu faqat bitta mavzuga oid emas, balki barcha pedagogik tushunchalarning kesishgan nuqtasidir.

Yuzaki yondashuvlar: Aksariyat mavzularda genderni oid muammolar, ehtiyojlar va imkoniyatlar nazariy jihatdan yo‘q yoki faqat umumiy tushuncha darajasida yoritilgan. Jumladan, diagnostika, menejment, tarbiya, ta’lim metodikasi, innovatsion texnologiyalar kabi sohalarda gender tafovutlarga chuqur tahliliy yondashuv yetishmaydi.

Stereotiplarga asoslangan talqin: Tarbiya mazmuni va tarbiyaviy metodlar kabi mavzularda jinsiy rollar an’anaviy stereotiplar orqali shakllantirilmoqda. Bu esa, ta’lim oluvchilarda zamonaviy demokratik qadriyatlar emas, balki patriarxal modelni mustahkamlaydi.

Amaliyotga integratsiya muammosi: Hatto gender tengligiga oid mavjud davlat hujjatlari (masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Gender tengligi strategiyasi - 2030”) ta’lim kurslarida amaliy tavsiya yoki tahlil obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmayapti.

Mualliflik yondashuvi zarurati: Pedagogik kurslarda genderni oid nazariyalar (masalan, Bem Androginiy modeli, Butler’ning performativlik nazariyasi, Gilligan’ning gender etikasi) o‘z aksini topmagan. Bu esa, talabalar ongida genderni oid ilmiy fikrlash va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib, quyidagi takliflar taqdim etilgan:


gender modulini ajratish emas, balki integratsiyalash har bir pedagogik mavzuga gender komponentini tanqidiy tahlil shaklida qo‘shish -bu fan sifatini oshirishga xizmat qiladi;

tanqidiy pedagogik yondashuvdan foydalanish: Paulo Freire va boshqa zamonaviy tanqidiy pedagogika nazariyalariga asoslangan gender yondashuvlar kursga kiritilishi lozim;

o‘quv-uslubiy materiallarni qayta ko‘rib chiqish: darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar gender stereotiplardan xoli, tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga mos bo‘lishi kerak;

pedagoglarni gender kompetensiyalari asosida tayyorlash: o‘qituvchi shaxsi gender madaniyatni shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lishi sababli, pedagoglar maxsus treninglar va modullar orqali tayyorlanishi zarur.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik mazmuni, shakl, metod va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirish jarayonining etnopedagogik mazmuni yoritilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida gender madaniyatni shakllantirish masalasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslanadi.



1-rasm. Etnopedagogik vositalar yordamida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik modeli

Ta'kidlanishicha, talabalar ongida “gender tenglik”, “o‘zaro hurmat”, “adolat” va “mas’uliyat” kabi fazilatlarini tarbiyalashda milliy pedagogik meros, xalq an’analari va zamonaviy ta’lim yondashuvlarining o‘rni tahlil qilinadi.

Muallifning e’tiroficha, talabalarda gender madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus ta’limiy-amaliy faoliyatni tashkil etish maqsadida etnopedagogik model ishlab chiqilgan (qarang: 1-rasm). Ushbu model orqali genderga oid madaniy qadriyatlarni talabalarining shaxsiy tafakkuri va ijtimoiy pozitsiyasiga uyg‘un tarzda singdirish ko‘zda tutilgan.

Etnopedagogik vositalar yordamida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik modeli quyidagi tarkibiy qismlarni o‘zida aks ettiradi:

maqsadga yo‘nalitirilgan blok - ijtimoiy buyurtma, gender madaniyati zaruriyati, maqsadlar tizimi;

nazariy-metodologik blok - asosiy yondashuvlar, pedagogik tamoyillar, konseptual asoslar;

mazmunli-jarayonga doir blok - etnopedagogik materiallar, gender madaniyati mazmuni, qadriyatlarga asoslangan ta’lim;

tashkiliy-faoliyatga yo‘nalitirilgan blok - interfaol metodlar, pedagogik vositalar, talabalar faoliyati yo‘nalishlari;

natijaviy-baholashga doir blok - shakllanish darajalari, baholash mezonlari, kutilayotgan natijalar.

Modeldagi har bir blok va komponentlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, talabalarda gender madaniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Mazkur model nafaqat nazariy asosga, balki ta’lim jarayoniga bevosita tatbiq etiladigan amaliy vositalar tizimiga ega bo‘lgan pedagogik struktura sifatida qaraladi.

Keltirilgan metod va texnologiyalar yordamida gender madaniyatini shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy asoslarda ishlab chiqilgan pedagogik model doirasida amalga oshiriladi (qarang 2.3.2-rasm).

2022-2023 yillar davomida bir nechta oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra, talabalarining 58 foizi rahbarlik lavozimlari erkaklar uchun “ko‘proq mos” deb hisoblashini bildirgan, 47 foizi esa, ayollarning ilmiy faoliyatda kam ishtirok etishini “tabiiy hol” deb baholagan. Shuningdek, so‘rovda qatnashgan talabalarining 70 foizi oliy ta’limda genderga oid maxsus kurslar kiritilishi zarurligini ta’kidlagan.

1-jadval

Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirish metodlari

Metod	Tavsifi	Amaliy qo‘llanilishi	Pedagogik samarasi
Design Thinking	Gender muammolariga ijodiy yondashuv asosida bosqichma-bosqich yechim ishlab chiqish metodikasi	Talabalar “Universitetda gender tengligi” bo‘yicha loyiha ishlab chiqadi	Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik rivojlanadi
Suhbat	Talabalar bilan bevosita muloqot orqali gender madaniyatiga oid tushunchalarni aniqlashtirish	“Ayollar va erkaklar tengligi” mavzusida interaktiv suhbat	Muloqot madaniyati, e’tirof va fikr erkinligi rivojlanadi

Tushuntirish	Talabalarga genderga oid ijtimoiy hodisalar mohiyatini izohlab berish	Gender tengligi bo'yicha qonunlar va qadriyatlarini darsda tushuntirish	Bilimlarni to'g'ri qabul qilish, asosli anglash
Aqliy hujum	Gender muammolari bo'yicha g'oyalarni erkin ilgari surish va tahlil qilish	"Gender tenglikni qanday targ'ib qilamiz?" mavzusida g'oyalar ishlab chiqish	Yangi fikrlar, tezkor fikrlash va kreativ yechimlar paydo bo'ladi
Case-study	Real yoki o'ylab topilgan gender holatlarini tahlil qilish orqali qaror qabul qilish	"Ish joyida gender diskriminatsiyasi" holati muhokamasi	Qaror qabul qilish, ijtimoiy adolat va empatiya shakllanadi
Storytelling	Gender tengligi haqidagi hikoyalarni eshitib, anglash va xulosa chiqarish	Jasoratli o'zbek ayollari haqida hikoya aytish	Qadriyatlarga hurmat, sevgirlik va madaniy tushunchalar rivojlanadi
Flipped Classroom	O'quvchilar uyda nazariyani o'rganib, darsda tahlil va muhokamaga kirishadi	"Gender adolat" mavzusida video ko'rib, sinfda bahs yuritish	Mustaqil fikrlash, tayyorgarlik va interfaol ishtirokni kuchaytiradi
Gamifikatsiya	Gender madaniyatiga oid bilimlarni o'yin uslublari orqali berish.	QR-kodli testlar, interaktiv onlayn o'yinlar.	Rag'batlantirish orqali bilimlarni mustahkamlash
Peer-learning	Talabalar o'zaro o'rgatish orqali bilim almashadi.	"Gender stereotiplar" mavzusida kichik guruhlarda bahs	Ijtimoiy muloqot, fikr almashish va tanqidiy fikr shakllanishi.
Digital assessment	Gender bo'yicha bilimlarni raqamli formatda testlar orqali baholash.	Quizizz platformasida gender tengligi testi.	Baholashning shaffofligi, aniq natija va shaxsiy rivojlanish.
Rag'batlantirish	Talabalarni gender tenglikni hurmat qilishga undash va maqtov orqali motivatsiya berish	Genderga hurmatli yondashuv namoyon etgan talabani rag'batlantirish.	Ichki motivatsiya, o'ziga ishonch, odob-axloqni qadrlash kuchayadi.
Sandra Bem testi (BSRI)	Talabalar o'zida erkak va ayolga xos ijtimoiy-psixologik fazilatlarining nisbatini aniqlashadi.	Talabalar maxsus testni to'ldirib, o'zlarining gender identifikatsiyasi bo'yicha natijalarni oladilar.	O'zini anglash, genderga oid ichki qarashlarni tahlil qilish va o'zini baholash rivojlanadi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov natijalari va uning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, o'tkazish bosqichlari va natijalari tahlil qilinadi. Anketa-so'rovnomalariga Termiz, Buxoro va Urganch davlat universitetlarining fizika-matematika, filologiya (o'zbek tili),

ijtimoiy-ish talim yunalishlari 1-kurs talabalari orasidan tanlab olingan 482 nafar respondent-talaba javob berdi.

“Umumiy pedagogika va psixologiya” hamda “Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba” fanlarining o‘quv rejasida belgilangan mavzular asosida gender madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan dars ishlanmalari ishlab chiqildi va ular shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarida faol qo‘llanildi.

Tadqiqot ishlari doirasida “Talabalar ongida milliy qadriyatlar va gender madaniyatining uyg‘unligi” kabi mavzularda trening mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida talaba yoshlarning gender madaniyati bo‘yicha rivojlanganlik darajasini aniqlashga doir baholash vositalari (testlar, esse, muammoli vaziyat tahlillari, shaxsiy fikr almashinuvi) amaliyotda qo‘llanildi.

Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar uch darajaga ajratildi:

1. *Aksiologik-me‘yoriy mezon.* Talabaning gender tengligi normalariga munosabatini va ularni o‘z xatti-harakatlarida qo‘llash qobiliyatini baholaydi:

yuqori daraja: tenglik normalarini ichki jihatdan qabul qiladi, ularni muloqotda faol qo‘llaydi va kamsitishning har qanday ko‘rinishini tanqidiy qabul qiladi;

o‘rta daraja: normalarni tashqi ta’sirlar orqali qabul qiladi, kamsitishga nisbatan passiv munosabat bildiradi;

past daraja: tanqidiy munosabatning yo‘qligi, kamsitishni norma sifatida qabul qilish.

2. *Kognitiv-ma‘lumotli mezoni.* Gender madaniyati, qoidalari va terminologiyasi haqidagi bilim doirasi va chuqurligini baholaydi:

yuqori daraja: gender madaniyati haqida tizimli bilim, kontseptual asoslarni ishonchli o‘zlashtirish, adabiyot bilan tanqidiy ishlash;

o‘rta daraja: asosiy yoki parchalangan bilim, nomuvofiq ishlatiladigan terminologiya, metodologik yordamni talab qiladi.

past daraja: bilim yuzaki, stereotipik, tanqidiy fikrlash yo‘q.

3. *Refleksiv-tahliliy mezon.* Talabaning o‘z e‘tiqodlari va xatti-harakatlarini o‘zini o‘zi tahlil qilish va tahlil qilish qobiliyatini baholaydi:

yuqori daraja: o‘z munosabatlarini anglash va tanqidiy baholash, tahlilga ilmiy yondashuvlarni qo‘llash qobiliyati;

o‘rta daraja: qisman o‘zini anglash, cheklangan tahlil, tashqi omillar (o‘qituvchi, atrof-muhit) ta’sirida;

past daraja: deyarli o‘zini o‘zi tahlil qilmaslik, stereotipik fikrlash, yuzaki tahlil.

4. *Affektiv-munosabatli mezoni.* Gender farqlarining hissiy idrokini, empatiyani va boshqalarga hurmatni baholaydi:

yuqori daraja: ifodalangan empatiya, xilma-xillikka ijobiy munosabat va hurmatli xulq-atvor;

o‘rtacha daraja: empatiya nomuvofiq ifodalanadi, ichki shubhalar va passivlik paydo bo‘lishi mumkin;

past daraja: muloqotda befarqlik, hissiy ajralish, tajovuzkorlik yoki qochish.

5. *Pragmatik-amaliy mezon*. Gender munosabatlari bilan bog‘liq akademik va darsdan tashqari vaziyatlarda talabaning haqiqiy harakatlarini baholaydi:

yuqori daraja: genderga sezgir xatti-harakatlardan ongli ravishda foydalanish, tenglikni himoya qilishda tashabbuskorlik;

o‘rtacha daraja: normalarga vaziyatga moslashish, mumkin bo‘lgan stereotipik harakatlar, o‘qituvchining yordamini talab qiladi;

past daraja: an’anaviy naqshlarning takrorlanishi, kamsitishni tan olmaslik, gender tashabbuslarida ishtirok etishga past motivatsiya.

Tadqiqotning yakunlovchi bosqichida talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning etnopedagogik asoslari amaliy jihatdan o‘z isbotini topdi va ta’lim jarayonida uni ro‘yobga chiqish uchun tavsiya etilgan metodlar samarali ekanligi tasdiqlandi.

2-jadval

Etnopedagogik vositalar asosida talabalarda gender madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi indikatorlari

T/r	Texnologik komponent	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar	Kutilayotgan natijalar	Ilmiy-indikatorlar
1.	Kognitiv bosqichi	Gender madaniyati va etnopedagogika asoslari bo‘yicha nazariy bilimlar	Talaba gender tengligi, xalq qadriyatlari, urf-odatlar va tarbiyaviy vositalar haqida tushunchaga ega bo‘ladi	So‘rovnoma, testlar, yozma izoh (1-10 ball)
2.	Emotsional-axloqiy rivojlanish	Etnik qadriyatlarga va jinsiy tenglikka nisbatan empatik, tolerant, axloqiy munosabat	Talaba jamiyatda gender rollarni axloqiy-estetik jihatdan baholay oladi	Kuzatuv, psixologik testlar, refleksiya (1-10 ball)
3.	Sotsial kompetensiya shakllanishi	Ijtimoiy tenglik, o‘zaro hurmat va muloqot madaniyatini milliy asosda shakllantirish	Talaba ijtimoiy vaziyatlarda har ikki jins vakillari bilan hurmat asosida muloqot qiladi	Rolli o‘yin, bahs-munozara, kommunikativ topshiriqlar (1-10 ball)
4.	Kulturologik yondashuv	Xalq og‘zaki ijodi, marosimlar, urf-odatlar orqali gender qadriyatlarni o‘rganish	Talaba etnopedagogik vositalar orqali zamonaviy gender qarashlarni talqin qiladi	Dastlabki va yakuniy esse, tahliliy savollar (1-10 ball)
5.	Analitik-tanqidiy fikrlash	Gender stereotiplarini tahlil qilish, tanqidiy qarash bildirish	Talaba milliy an’analar va gender munosabatlarini tahlil qilib, zamonaviy yechim taklif qila oladi	Tahliliy maqola, prezentatsiya, loyihaviy ish (1-10 ball)
6.	Amaliy-tarbiyaviy faoliyat	O‘zbek ayollari va erkaklari timsolida gender tenglikni targ‘ib etuvchi faoliyat	Talaba gender madaniyatini amaliy hayotga tatbiq etadi.	Portfolio, ijtimoiy loyiha, trenerlik faoliyati (1-10 ball)
7.	Metareflektiv bosqich	O‘zini baholash, o‘zgarishni anglash, shaxsiy pozitsiyani aniqlash	Talaba gender madaniyatidagi o‘z pozitsiyasini ongli ravishda asoslay oladi	Reflektiv intervyu, metakognitiv savollar (1-10 ball)

Tajriba-sinov jarayonida erishilgan natijalarga tayanib aytish mumkinki, tajriba guruhlarida erishilgan natijalarga ko‘ra, yuqori va o‘rta baholarda o‘shish, quyi bahoda esa, kamayish kuzatildi. Nazorat guruhlarida esa, dastlabki hamda yakuniy natijalar o‘rtasida farq sezilmadi.

Talabalarda gender madaniyatning rivojlanganlik darajasi (hududlar kesimida yakuniy tajriba-sinov jarayoni natijlari)

OTM	Guruhlar	Talaba soni	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
			5		4		3	
			sonda	foizda	sonda	foizda	sonda	foizda
Termiz davlat universiteti	Tajriba guruhi	82	20	24,39%	45	54,88%	17	20,73%
	Nazorat guruhi	78	11	14,10%	23	29,49%	44	56,41%
Buxoro davlat universiteti	Tajriba guruhi	79	21	26,58%	44	55,70%	14	17,72%
	Nazorat guruhi	85	12	14,12%	28	32,94%	45	52,94%
